

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## **FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ**

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsija etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

### **Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### **Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

**T.Egamberdiyeva**

Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning  
pedagogik xususiyatlari ..... 7

**R.Safarova, M.Abdullayev**

Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish  
usullari va metodlari ..... 11

**J.Obidov**

Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik  
mazmuni va amaliyotdagi holati ..... 16

**F.Madraximova**

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb  
pedagogik muammo sifatida ..... 21

**X.Tojiboyeva**

O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning  
pedagogik imkoniyatlari ..... 26

## IQTISODIYOT

**M.Yuldasheva, A.Kolkanatov**

Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing ..... 29

**S.Ismoilova**

Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan  
ko'rsatkichlar tizimi ..... 34

## FALSAFA, SIYOSAT

**A.Yuldashov**

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy  
asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'rni ..... 39

**D.Raxmatova**

Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri  
(xx asrning 40-50 yillar misolida) ..... 47

## TARIX

**B.Matboboyev, A.Aloxunov**

Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari ..... 53

**S.To'raxo'jayev**

Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar  
evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan ..... 58

**R.Ahmedov**

Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning  
yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar) ..... 63

**Sh.Jumayev**

Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun ..... 70

**I.Xo'jaxonov**

Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi ..... 74

**A.Sarsenbayev, N.Turambetov**

Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI) ..... 78

**R.Akbarov**

Ikkinci jahon urushi yillarda o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy  
resurlardan foydalanish masalasi ..... 85

**R.Murodaliyev**

So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida ..... 92

**N.Turambetov**

Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim ..... 98

**X.Ergasheva**

1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi ..... 103

**Sh.Xonimov**

Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga  
globallashuv jarayonlarining ta'siri ..... 109

## TALABALARDA TEKNOLOGIK DETERMINIZM KONSEPSIYASIGA OID BILIMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI VA AMALIYOTDAGI HOLATI

### ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И ПРАКТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ О ПОНЯТИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ДЕТЕРМИНИЗМА

### PEDAGOGICAL CONTENT AND PRACTICAL SITUATION OF IMPROVING STUDENTS' KNOWLEDGE OF THE CONCEPT OF TECHNOLOGICAL DETERMINISM

**Jamshidbek Obidov G'ayratjon o'g'li<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Jamshidbek Obidov G'ayratjon o'g'li**

– Farg'ona politexnika instituti (O'zbekiston, Farg'ona) Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti kafedrasи mustaqil tadqiqotchisi.

#### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada oliy texnika ta'limg muassasalarida texnologik ta'larning mazmunini talabalarga chuqurroq singdirish, shu bilan birga texnik ta'larning istiqbollari to'grisidagi yondashuvlarni tushuntirish, xususan, texnologik determinizm va texnostatik determinizm konsepsiyasi doirasida yondashuvlarni o'qitish, bu orqali texnika va texnologik rivojlanishni jamiyatdagi sabab va oqibat zanjirlariga bog'lash, sabab va oqibat uyg'unligi orqali texnologik taraqqiyotni tushunish, bu boradagi qarashlar tizimini o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan.*

#### **Аннотация**

*В данной статье содержание технологического образования в высших технических учебных заведениях глубоко внедряется в студентов, при этом объясняются подходы к перспективам технического образования, в частности подходы к обучению в рамках концепции технологического детерминизма и техностатического детерминизма, посредством которых технология и подключение технического развития к цепочкам причин и следствий в обществе, понимание технологического разветвления через сочетание причины и следствия, совершенствование методики обучения системы взглядов в этой связи широко освещаются.*

#### **Abstract**

*In this article, the content of technological education in higher technical education institutions is deeply embedded in students, while explaining the approaches to the perspectives of technical education, in particular, teaching approaches within the concept of technological determinism and technostatic determinism, through which technology and linking technological development to the chains of cause and effect in society, understanding technological development through the harmony of cause and effect, improving the methodology of teaching the system of views in this regard are widely covered.*

**Kalit so'zlar:** texnologik determinizm, texnostatik determinizm konsepsiyasi doirasida yondashuvlarni o'qitish, texnik ta'larning istiqbollari, o'qitish metodikasini takomillashtirish, texnogen sivilizatsiya.

**Ключевые слова:** подходы к обучению в рамках концепции технологического детерминизма, техностатический детерминизм, перспективы технического образования, совершенствование методики обучения, техногенная цивилизация.

**Key words:** approaches to learning within the framework of the concept of technological determinism, technostatic determinism, prospects for technical education, improvement of teaching methods, technogenic civilization.

## KIRISH.

### 1.1. Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni.

Texnologik ta'limgda texnik taraqqiyot va ijtimoiy rivojlanish o'rtasidagi aloqadorliklar sabab va oqibat zanjiri orqali tushunish va bu asosida ta'limg metodikasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Sabab va oqibat - narsa va hodisalar o'rtasidagi umumiy zaruriy aloqani ifodalovchi tushuncha hisoblanadi va hodisalar zanjirida o'zidan boshqa yana bir hodisani keltirib chiqaradigani sabab, paydo bo'lgan hodisa esa oqibat deyiladi. Shundan kelib chiqadiki texnik va texnologik taraqqiyotda ham barcha salbiy va ijobiy o'zgarishlar sabab va oqibat ketma-ketligiga bog'liq hisoblanadi.

Oliy texnik ta'limgda texnologik konsepsiyalarni o'qitish unchalik qoniqarli emas. Bugungi texnik ta'limg shablonlar ichida qolib ketayotgan, innovatsion o'zgarishlar sekinlik bilan olib borilayotgan, eski tuzum metodikasi bo'yicha o'qitilayotgan va o'sha davr ideologiyasi bo'yicha o'qitilayotgan bir shaklda namoyon bo'limoqda. Shu bilan birga bugungi texnik oliy ta'limgda muhandis-injinerliklikka tayyorlashda

## PEDAGOGIKA

faqat eskicha ma'lumotlarni berish bilan cheklanish, nazariy bilim berish va buni amaliyat bilan bog'lamaslik, texnik ishlarni olib borishga yo'naltirilgan labaratoriyalarning yetishmasligi kuzatiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, oliy texnik ta'limda talabalarni ko'proq mustaqil o'qib o'rganishga, amaliy ko'nikmalarni oshirishga, o'z yo'nalishi bo'yicha kreativ loyihalarni ishlab chiqishga ko'proq yo'naltirilishi kuzatiladi. Shu bilan birga ilg'or mamlakatlarda texnik va texnologik sohaga doir bilimlarni berish bilan birga bu boradagi nazariyalar va ilmiy konsepsiyalarni muntazam singdirib borish orqali ularning kadr sifatidagi dunyoqarashini o'zgartirish, insoniyat kelajagi uchun xizmat qilishga yo'naltirishga alohida urg'u berildi [1].

Mamlakatmizda ham so'ngi yillarda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar asosida ta'limga bo'lган va kadrlar tayyorlashga bo'lган yondashuvlar o'zgarmoqda. Xususan, oliy texnik ta'limga ham innovatsion yondashuvlarni olib kirish, talabalarga bilim va texnik ma'lumotlarni o'rgatish bilangina kifoyalanmasdan ularda kreativlik, yangiliklarga, innovatsion o'zgarishlarga tayyor bo'lish, texnik taraqqiyot mazmunini anglash orqali uning o'zgarishlar dinamikasini to'g'ri tushunishga yo'naltirish ishlari olib borilmoqda.

### **II. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)**

#### **2.1. Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarni takomillashtirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi holati**

Ma'lumki, hozirgi davrda ilmiy bilish sohasida yangi fanlar, fan tarmoqlarni yaratish, alohida dolzarb muammolarni chuqur o'rganish zaruriyati yangidan – yangi fanlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Mana shunday sharoitda texnika yo'nalishlari uchun texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini shakllantirishga yo'naltirilgan integrallashgan ta'limni taklif qilish samarador hisoblanadi. Albatta, oliy texnika ta'limi muassasalarida mavjud o'qitish bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilish uchun joriy etilayotgan yangi fanlarni amaldagi o'quv rejalarini va dasturlariga texnologik determinizm konsepsiyasini kiritishda aniq mezonlarga ishlab chiqish lozim. Hozirgi davrda mana shunday mezonlarni aks ettiruvchi metodologik va ilmiy uslubiy yondashuvlar shakllanmoqda. Ularning qatoriga, jumladan, oliy texnika ta'limi muassasalarida o'qitiladigan fanlarni aniqlash ularning mazmunini belgilashga modulli o'qitish nuqtasi nazaridan yondashish, fanlarni o'qitishga yo'naltirishdan asta – sekinlik bilan kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga o'tish kabilar kiradi.

Biroq bu jarayon juda murakkab va bizning byurokratik rasmiyatchilik keng yoyilgan tizimda bu islohotlarni amalga oshirish juda mushkul ish hisoblanadi. Bugungi kunda oliy texnik ta'lim tizimidagi o'quv rejarni tahlil qilib shuni ta'kidlash mumkinki, ularni isloh qilish, ko'plab o'quv fanlarini yangilash, zamonaviy fanlarni kiritish va o'qitish tizimiga ko'proq erkinlik berish orqali o'qitish samaradorligini oshirishga asosiy urg'uni berish talab etilmoqda. O'quv rejalarida mavjud ko'plab fanlar umumiy, bir-birini takrorlovchi va mutaxassislik uchun ancha uzoq va kasbiy dunyoqarashni shakllantirishda kam samaradorlikka ega ekanligi ma'lum bo'ladi.

Oliy texnika ta'limi muassasalarida o'tilishi taklif qilinayotgan "Texnologik determinizm asoslari" moduli doirasida o'quv rejalar, dasturlarni yaratishda qo'llanilayotgan zamonaviy usullarning ta'limning pirovard natijalarida ham aks etishiga erishish uchun yaxlit ta'lim tizimning ikki muhim komponenti – o'qitish faoliyati va ta'lim olish faoliyatini takomillashtirish zaruriy talabga aylanadi. Bo'lg'usi texnika mutaxassislarini o'qitishni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lган kompetentlik darajasini inobatga olgan holda amalga oshirish oliy ta'lim sohasidagi istiqbolli yo'nalishlardan biridir [2]. Texnologik determinizmga oid kasbiy bilim va ko'nikmalar mutaxassisning o'zi faoliyat olib boradigan sohadagi muammolarni anglab yetish, bunda axloqiy mas'uliyatni ustuvor bilish, ularni yuqori saviyada hal qilish, o'zi bajaradigan ish yuzasidan mas'uliyatni to'liq zimmasiga olish uchun zarur bo'lган malakaviy tayyorgarlik darajasini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Yangi davr voqeligi, tez sur'atlar bilan o'zgarib boradigan hozirgi sharoitda professional bilim va ko'nikmalar yangicha ma'no kasb etib, nafaqat kasbiy faoliyatni ta'lim olish jarayonida o'zlashtirilgan, reproduktiv faoliyat uchun xos bo'lган usul, uslub va vositalardan samarali foydalanishni, balki yangiliklarni joriy etish, imkoniyat darajasida innovatsion g'oyalarni mustaqil ravishda ilgari surish va ularni ro'yobga chiqarish salohiyatini ham ifoda qiladi. Oliy texnika ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini rivojlantirish g'oyat murakkab va ko'pqirrali ta'limiy jarayondir. Uni rivojlantirishga ko'p bosqichli ta'limiy vazifa deb qarash maqsadga muvofiq bo'ladi.

## 2.2. Tadqiqot metodologiyasi. (Research Methodology)

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining chuqurlashuvi, takomillashishi sharoitida bo'lajak mutaxassislarda kompetentlik, yuqori kasbiy tayyorgarlik, o'z kasbiga sodiqlik, o'zgarib borayotgan ijtimoiy hayotga moslashuvchanlik, mustaqil holatda muntazam o'z bilimlarini oshirib borish, doimiy sur'atda taklif va tavsiyalar bera olish, faoliyatini mustaqil tahlil qilish kabi xususiyatlarni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, oliv ta'lim jarayonining sifati bevosita yuqori malakali mutaxassis tayyorlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki fuqarolik jamiyati sharoitida oliv ta'lim inson faoliyatidagi asosiy yutuqlar va hayoti barqarorligining muhim omili sifatida gavdalanmoqda. Shu bilan birgalikda oliv ta'limda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash nafaqat professor-o'qituvchilar, balki talabalar uchun ham murakkab jarayon hisoblanadi. Buning asosiy sababi shundaki, yuqori malakali mutaxassis tayyorlash jarayoni bo'lajak bakalavr va magistrlerda kasbiy bilimlar, ko'nikmalar, raqobatbardoshlikka oid shaxs sifatlarini, jihatlarini shakllantirishni talab qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Oly texnik ta'lim talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasiga doir bilim va dunyoqarashini rivojlantirishda samarali ta'lim metodikasini tanlay olish, foydali ta'lim texnologiyasini ishlab chiqa bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki to'g'ri tanlangan ta'lim metodikasi ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Texnologik determinizm konsepsiysi asoslariga doir bilimlar, o'z navbatida, talabaning axloqiy pozitsiyasi bilan bog'liq bo'lib, mavjud egallangan tajribalarni hisobga olgan holda texnikaning gumanistik xarakteri va uni yaratuvchi yoki foydalanuvchining qobiliyati bilan tavsiflanuvchi shaxsiy qadriyatga yo'naltirilganlik nuqtayi nazaridan texnogen sivilizatsiya inqirozini oldini olishda foydalanish bilan belgilanadi. Shunday ekan, innovatsion ta'lim muhitida zamонави та'lim metodikasini yarata olish va bilim oluvchilarda o'qishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish o'z samaradorligini ko'rsatadi.

## 2.3. Tahlil va natijalar. (Analysis and results)

**Metodik shart-sharoitlar.** Mazkur shart-sharoitlarni tahlil qilish va pedagogik jarayondagi imkoniyatlari, ta'lim sifatiga ta'sirini tahlil qilish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Unga ko'ra, birinchi metodik shart – texnika oliv ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiysi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirish texnologiyasini o'rgatish. Ya'ni, Texnika oliv ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiysi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishda vositali, amaliy va mustaqil izlanishga doir darajalarga asoslanishni talab etadi. Oly texnik ta'limda ta'lim samaradorligini namoyon qiluvchi metodik sharoitlarni tahlil qilish, mavjud muammolarni ko'rib chiqish va yangicha metodikani ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Mazkur jarayondagi ikkinchi metodik shart – o'quv jarayonida talabalarining texnologik determinizm konsepsiysi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirishdagi individual xususiyatlarni hisobga olish, tahlil etish (tabaqalashgan kognitiv uslub) va umumlashtirish (integral kognitiv uslub)ni talab etuvchi tabaqa lashtirilgan amaliy topshiriqlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish. Bu talabalarda ushbu konsepsiya doir bilim va yondashuvlarini shakllantirish bilan birga, kasbiy dunyoqarashi, ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

### Texnika oliv ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiysi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirish rivojlanish dinamikasi

Shakllanganlik darajasi	Asoslovchi bosqich						Ta'kidlovchi bosqich					
	KK		TFK		AK		KK		TFK		AK	
	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG
Past	49	48	37	28	59	58	25	46	13	29	18	52
O'rta	30	24	49	54	29	29	49	29	51	57	49	36
Yuqori	21	28	14	18	12	13	26	25	36	14	33	12

Korrelyatsion tahlil natijalari ham texnika oliv ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiysi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirish bo'yicha ahamiyatli o'zgarishlar kuzatilganligini tasdiqladi:


## PEDAGOGIKA

Texnologik determinizm konsepsiyasiga doir bilimlar komponentlari	O'rtacha o'zlashtirish		Ahamiyatlilik darajasi
	Asoslovchi	Ta'kidlovchi	
Kognitiv	11,77	15,47	r≤ 0,01
Tashkiliy-faoliyatga doir	25,36	31,67	r≤ 0,01
Aksiologik	10,14	14,43	r≤ 0,01

## Nazorat va tajriba-sinov guruhlaringning tajriba yakunidagi umumiyo ko'rsatkichlari

Guruhlar	Talabalar soni	Javoblar		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	87	50	26	11
Nazorat guruhi	86	22	44	20

Uchinchi metodik shart – texnologik determinizm konsepsiyasini asoslariga doir bilimlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonida maxsus tizimlar, dasturiy vositalardan foydalanish. Dasturiy vositalar asosida bo'lajak texnologlarda texnika taraqqiyoti bilan ijtimoiy dunyoqarashdag'i sababiy bog'lanishlarni, oqibatlarni va texnogen sivilizatsiyaning insoniyat taraqqiyotiga tahdidini ko'rgazmali va ositalar asosida tushuntirish imkoniyatiga ega bo'linadi.



Oliy texnik ta'lim talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasiga doir bilim va dunyoqarashini rivojlantirishda samarali ta'lim metodikasini tanlay olish, foydali ta'lim texnologiyasini ishlab chiqsa bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki to'g'ri tanlangan ta'lim metodikasi ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Texnologik determinizm konsepsiyasini asoslariga doir bilimlarni o'z navbatida talabanining axloqiy pozitsiyasi bilan bog'liq bo'lib, mavjud egallangan tajribalarni hisobga olgan holda texnikaning gumanistik xarakteri va uni yaratuvchi yoki foydalanuvchining qobiliyati bilan tavsiflanuvchi shaxsiy qadriyatga yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan texnogen sivilizatsiya inqirozini oldini olishda foydalanish bilan belgilanadi [3]. Shunday ekan, innovatsion ta'lim muhitida zamonaviy ta'lim metodikasini yarata olish va bilim oluvchilarda o'qishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish o'z samaradorligini ko'rsatadi.

Mazkur ta'rifga tayangan holda, talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasini asoslariga doir bilimlarni rivojlantirishning quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin: kognitiv (Texnologik determinizm haqida bilimlarga ega bo'lish, uni tahlil etish, baholash qobiliyati), aksiologik

(umuminsoniy texnologik qadriyatlar haqidagi tasavvur, mazkur qadriyatlar bilan bog'liqlikda dunyoqarashni shakllantirish), kommunikativ-faoliyatga doir (boshqalarning fikri, nuqtayi nazarlariga tolerant munosabatda bo'lish, vaziyatga baho berish qobiliyati). Mazkur komponentlar mazmuni talabalarda texnologik determinizm konsepsiysi asoslariغا doir bilimlarni rivojlantirishning ikki qismdan iborat tuzilma sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi: shaxsga (shaxs sifatlari, motiv va qadriyatları tizimi) va faoliyatga yo'naltirilgan (tajriba, bilim, qobiliyat). Zamonaviy tadqiqotlar tahlili talabalarda texnologik determinizm konsepsiysi asoslariغا doir bilimlarni rivojlantirish muammosini hal etishga doir uch yondashuvni ajratib ko'rsatish imkonini beradi: tashqi muhit ta'siri, shaxsiy faoliy va integrativ. Zero, intellektual salohiyatga ega bo'lgan sun'iy kognitiv tuzilmalarning texnika va texnologiyalarni yaratish faoliyatiga keng ko'lamma kirib kelishi ijodiy salohiyatga ega bo'lgan inson ishtirokining cheklanishi, pirovard mahsulotdan manfaatdorligi yoki natijalar uchun mas'uliyatning pasayishini anglatmaydi.

### III. Xulosa va takliflar. (Conclusion/Recommendations)

Texnika oliv ta'lif muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiysi asoslariغا doir bilimlarni takomillashtirishga doir pedagogik yondashuv ularni texnik va texnologik dunyoqarashi va tafakkurini yuksaltirishga yo'naltirilgan bo'lmog'i zarur. Ya'ni bo'lajak kadr texnika va texnologiyalarni takomillashtirish davr talabi ekanini, biroq undan yovuzlik, qirg'inbarot urushlar, global ekologik va texnogen inqirozlarni keltirib chiqarish uchun foydalanmasligini anglashi va insoniyat taqdiriga mas'uliyatni har doim yoddha saqlashi lozim.

Bugungi kunda zamonaviy texnika taraqqiyoti va uning muvaffaqiyatlari ikki xil ijtimoiy oqibatni tug'dirmoqda. Bir tomonidan texnikasiz insoniyat taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin bo'lsa, ikkinchi tomonidan, texnika qudratli kuch sifatida salbiy oqibatlarga, dunyonи buzishga, fojeali oqibatga olib kelmoqda [4]. Texnikani o'yamasdan rivojlantirish murakkab ijtimoiy muammolarni tug'dirmoqda. Aslida inson og'irini yengil qilishga qaratilgan texnika ishsizlikni tug'dirmoqda, ish bilan ta'minlashni qiyinlashtirmoqda. Xususiy transportlarning ko'payishi, bir tomonidan yaxshi, ikkinchi tomonidan, shaharning ekologik holatiga salbiy ta'sir etmoqda. Shovqin-suronlar inson asabiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi asr bo'sag'asida insoniyat oldida texnikaga oid juda katta muammolarni hal qilish masalasi turibdi. Atrof-muhitning sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi, tabiat resurslarining tugab borishi, demografik muvozanatning buzilishi, radioaktiv fojeanning o'ta xavfli ekanligi kabi masalalarni hal qilmasdan turib insoniyat kelajagini tasavvur qilish qiyin. Bularning barchasi texnikadan qanday va nima maqsadlarda foydalanish kerakligi masalasi to'g'risida chuqur va atroflicha fikr yuritishni taqozo etadi.

Xulosa qilganda, oliv texnik ta'lif talabalarida texnologik dereminizm asoslariغا doir bilimlarini rivojlantirish va dunyoqarashini shakllantirishning mayjud amaliyotdagi holati unchalik qoniqarli emaligi, ta'limda eskicha an'analarning saqlanib qolayotganligi, yangicha konsepsiylar va nazariyalarni o'qitish metodikasini olib kirilishi pedagogik zarurat ekanligi kelib chiqadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzlusiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306-sonli Qarori./ Xalq so'zi. 2019 yil 4 may.
2. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – Toshkent: Yozuvchi, 1996. 1-k. –B.272.
3. Mardonov Sh. Yangi ta'limi qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – Toshkent: Fan, 2006. –B. 232.
4. Azizxodjaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2000. –B. 52.
5. The impact of managerial professional development on the effectiveness of Higher Education institution management. Academicia: an international multidisciplinary research journal. 2020;10(12):1014-20. 9. Siddikov, I. B.
6. Wig N. Technoloy, Phylosophy and Politics / Technology and politics. Daham, L., 1988. – Pp.8–10.